

- ✓ ekologik turizm;
- ✓ organiq dexkonchilik;
- ✓ ekologik mashinasozlik;
- ✓ ekologik farmatsevtika va kosmetika;
- ✓ ekologik qurilish.

Xulosa qilib aytganda, bu ishlarning natijasida iqtisodiy o’sish va ekologik xavfsizlik mezonlari bir-biriga mos kelishini ta’minlaydi.

**BOSHLANG’ICH SINFLARDA 3 «E»(EXCITE EDUCATE
EMPOWER) METODIKASIDAN
FOYDALANISH MEXANIZMLARI**

Hoshimova Odina

University of Economics and Pedagogy

English tili filologiyasi fakulteti 2- kurs talabasi.

Ilmiy rahbar : Kosimova Nargiza Dilmuratovna

*University of economics and pedagogy Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi
professori, p.f.n., dotsent.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda o’quvchilarni 3 “E” metodikasini qo’llash orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan fikrlar haqida bayon qilingan.

Kalit so’zlar ; psixologiya , qiziqarli o’yinlar , boshlang’ich sinflar , zamonaviy innovatsion metodlar , rag’batlantirish , ingiliz tili.

**МЕХАНИЗМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ
МЕТОДИКИ 3 «Е» В МЛАДШИХ КЛАССАХ.**

Ключевые слова: психология, интересные игры, механизмы использования,

3 «Е», младший школьники, поощрение, английский язык.

Статья посвящена исследованию механизмов использования инновационной методики 3 «Е» в обучении младших классов. А также рассматриваются принципы и этапы внедрения данной методики в обучении.

**MECHANISMS FOR USING INNOVATIVE METHODOLOGY 3 «E»
IN ELEMENTARY
GRADES.**

Keyword: *psychology, interesting games, mechanisms for using, techniques 3 «E» junior grade, encouragement English.*

The article is dedicated to exploring the mechanisms of using the innovative 3 «E» methodology in teaching primary school students. It examines the fundamental principles and stages of implementing this methodology in the educational process.

Mamlakatimizda barcha sohadagi islohotlar jadal rivojlanib kelmoqda. Xususan, ta'lim sohasida psixologiya fani barcha yo'naliishlarda qo'llanilib o'ziga hos samarali natijalarga e'rishmoqda. Zero, shaxs nafaqat mehnat faoliyatida, balki hayotiy pozitsiyasi asosida ilm fanga ham innovatsion goyalari, kashfiyoti va kreativ ixtirolari bilan rivojlangan davlatlar safiga kirib bordi

Muxtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning oqilona olib borayotgan siyosati davlatimizni izchillik bilan rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilda PQ-54-sonli qarori ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirishga qaratilgan bir qator muhim chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Quyida ushbu qarorning asosiy mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ta'lim sifatini oshirish:

O'quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish.

O'qituvchilarni malakasini oshirish va ularning professional rivojlanishini ta'minlash.

2. Boshlang'ich sinflar uchun yangi o'quv dasturlari va metodikalar joriy etilmoqda.

3. Interaktiv ta'lim metodlari: O'quv jarayonida interaktiv metodlarni qo'llashga e'tibor qaratilmoqda.

4. Raqamli ta'limni rivojlantirish:

Raqamli platformalar: Ta'lim jarayonida raqamli platformalardan foydalanishni kengaytirish bo'yicha qarorlar qabul qilingan.

Masofaviy ta'lim: Masofaviy ta'lim tizimlarini joriy etish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar.

5. Ta'limda inkluzivlikni oshirish:

Maxsus ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun dasturlar: Maxsus ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun ta'lim dasturlari va resurslar ishlab chiqilmoqda.

6. Ta'lim sohasidagi investitsiyalar:

Yangi ta'lim muassasalari: Yangi maktablar va oliy ta'lim muassasalarini qurish bo'yicha investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Maqolaning asosiy mazmuni ham ta'lim tizimida yangi metodlarni qo'llashdan iborat bo'lib, boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlardan biri, ta'lim jarayonida 3E metodikasi qo'llash orqali ta'lim sifatini samarali tashkil etishga e'rishish. Metodning psixologik jihatlari quyidagilardan iborat:

✓ **O'quvchilarning qiziqishini oshirish:** 3E metodikasi o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

✓ **Shaxsiy rivojlanish:** Ushbu metodika o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, o'z-o'zini anglashiga va mustaqil fikrplashiga yordam beradi.

✓ **Ta'lim sifatini oshirish:** 3E metodikasi orqali ta'lim sifatini oshirish va o'qituvchilar uchun yangi yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlari yaratiladi.

Talim jarayonida 3,, E'' metodikasi bu – talim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish uchun mo'ljallangan yondashuv bo'lib , quyidagi bosqichlardan iborat .

1 Excite (qiziqtirish)

Ushbu bosqichda o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish , ularda ijobiy hissiyotlarni uyg'otishi va o'qishga motivatsiya berish mumkin.

A) qiziqarli savollardan foydalanish

B) qiziqarli hikoya va videolar bilan boshlash

C) mavzuning dolzarbligi va qiziqarli tomonlarini ko'rsatish

2 Educate (o'rgatish)

Asosiy bilim va ko'nikmalarni yetkazib berish bosqichi . Bu bosqichda mavzuning mazmuni tushuntiriladi.

O'quvchilarning etiborini saqlab qolish uchun turli vositalardan prezentatsiyalar , grafiklar , amaliyotlar foydalanish .

A) o'quvchilar bilan interaktiv muloqot qilish

B) misollar keltirish orqali mavzuni oson tushuntirish .

3 Empower (quvvatlantirish)

Bu bosqichda o'quvchilarni o'z bilimlarini mustaqil qo'llashga undash va ularga ishonch berish maqsad qilingan .

A) o'quvchilarga mustaqil mashqlar yoki loyiha topshiriqlarini berish .

B) muvaffaqiyatlarini maqtash va rag'batlantirish.

C) ularni muammoni mustaqil hal qilishga o'rgatish .

Shuningdek ushbu metodika orqali bolalarni psixologiyasini rivojlantirishda samarali usullardan biri hisoblanadi .

- A) Jamila jiydani joyiga joyladi.
- B) zebras zig and zebras zag

Ushbu tez aytish orqali tushunish yoki eslab qolish , bolaning nutqini o’sishiga yordam beradi.

Ertaklar orqali o’rgatish. Malumki , bolalar turli xil ertaklar o’qishga va eshtishga intiladi. Ingiliz tilidagi ertaklarni o’qish jarayonida ular o’qish bilan birgalikda tushunishga bo’lgan qiziqishi ortadi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o’rganishlari uchun samarali yo’l. Masalan ;

The lost kite

Emily went to the park with her kite. She ran and let the kite fly high in the sky. Suddenly, the string broke, and the kite flew away. Emily was sad. She looked every where but could not find it. Just when she was about to give up, a kind stranger found her kite and returned it. Emily was happy again.

She’rlar orqali o’rgatish. Ingiliz tilidagi she’rlarni o’qishning foydali tomonlari juda ko’p. Bunda bolalarni til boyligini oshiradi , til tuzilishini yaxshilaydi, tasavvurni kengaytiradi, madaniyat bilan tanishtiradi, tafakkur va ohangni yaxshilaydi, ijoyidiy fikrlarni omma oldida gapirishga psixologik fobiyasini yo’qotishga yordam beradi.

I think it is a funny thing
That some birds whistle, others sing.
The warbler warbles in his throat,
The sparrow only knows one note;
But he is better off than some,
For humming birds can only hum.

Fobiya so’zi grekcha “fobus” so’zidan olingan bo’lib , vaxima, qo’rquv degan manolarni bildiradi. Fobiya turlaridan biri hisoblangan “klaustobiya” bu – odam gavjum joylar va transportda yurishdan qo’rqish shu kabi psixologik qo’rquvlarni o’z ichiga oladi. She’r yodlash , omma oldida aytish , qo’rquvlarni yengishi mumkin. Olomon oldida she’r o’qish o’zini erkin tutishni o’rgatadi va sahna qo’rquvini yo’qotishga bevosita hizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat qo’rquvlarni yengishda balki o’z – o’ziga ishonchni oshirishda ham ko’maklashadi.

Quruq yodlash orqali o’rgatish. Bu ma’lumotni mantiqiy tahlil qilmasdan , takrorlash orqali yod olish hisoblanadi. Ushbu jarayon bolalarni xotirasini mustahkamlash , og’zaki nutqni rivojlantirish , takrorlash orqali ma’lumotni avtomatik ravishda eslab qolish qobiliyati shakillanadi. Bu esa tezkor javob berish va fikrlash jarayonini tezlashtiradi.



Rasmli o'yinlar – ta'lim va tarbiya jarayonida bolalarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarli qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu o'yinlatdan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi, tasavvurini rivojlantiradi va ijodiy fikrlashga undaydi .

Xotirani mustahkamlash

A) Foydasi ; rasmli kartochkalar , boshqotirmalar yoki asosiy fikrlarni eslab qlishga qaratilgan o'yinlar bolalarning xotirasini mustahkamlaydi.

B) Natija ; bolalar o'rganilgan ma'lumotni uzoq vaqt yodda saqlaydi.

Rasmli o'yinlar bolalarning nafaqat bilim olish , balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ular orqali bolalar dunyoni o'rganadi , yangi bilimlarni o'zlashtiradi va hayotni o'yin shaklida tushunib boradi. Shu sababli , ta'lim jarayonida bunday o'yinlardan foydalanish samarali natijalar beradi.

Sezgilar orqali o'rganish.

1. Ko'rish (vizual) orqali o'rganish;

A) Rangli materiallar va grafikalar ; O'quv materiallarni diagramma , va rangli chizmalar orqali tushuntirish.

B) Video va animatsiyalar ; murakkab mavzularni tushuntirish uchun qisqa videolar va animatsiyalardan foydalanish.

C) Kitob va taqdimotlar ; vizual taqdimotlar , slayd- shoular yoki suratlar yordamida dars o'tilishi.

2 Eshitish (auditiv) orqali o'rganish ;

A) Audio darslar va podkastlar; ma'lumotlarni eshitib tushunishni o'rganish uchun audio manbalardan foydalanish .

B) Muzokara va muhokamalar ; guruxlarda fikr almashish va bahslar tashkil qilish .

C) O’quv qo’shiqlari va ritmlar; yodlashni osonlashtirish uchun musiqiy yondashuvni qo’llash.

3 His qilish va teginish (taktil);

A) Labaratoriya mashg’ulotlari; tajriba orqali o’ganish uchun amaliy mashg’ulotlar tashkil etish

B) Interaktiv materiallar ; tashqi maketlar , 3D modellar yoki qurilmalardan foydalanish .

C) Qo’l bilan yozish va chizish; qo’l bilan yozuvlarni chizish , reja tuzish va mashqlarni bajarish.

4 Hid va ta’m sezgisi ; bu sezgi ko’proq fanlar (masalan , kimyo yoki biologiya) da foydalilanadi . masalan ;

A) Hidni his qilish; tajribalarda kimyoviy moddalar yoki o’simliklarning hidini ajratib o’rganish.

B) Ta’mni tadqiq qilish ; oziq -ovqat bilan bog’liq darslarda ta’m orqali yangi bilimlar olish.

5 Harakat (kinaestetik) orqali o’rganish ;

A) Jismoniy faoliyat ; mashqlar, rolli o’yinlar va harakatlarni talab qiladigan topshiriqlar .

B) Ekskursiyalar ;o’quvchilarni tabiatga yoki tarixiy joylarga olib chiqish orqali tajriba asosida ta’lim berish

C) O’yinlar va interaktiv mashg’ulotlar; mashg’ulotlarni o’yin shaklida tashkil qilish.

Sezgi a’zolarini o’zaro bog’lagan holda o’qitish samaradorlikni oshiradi va o’quvchilarning o’rganish jarayoniga faolroq jalb bo’lishiga yordam beradi.



Rag'batlantirish- boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni rag'batlantirish ta'lim jarayoninng ajralmas qismi hisoblanadi. Rag'batlantirish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularga ishonch bag'ishlaydi va faol ishtirokini ta'minlaydi.

1 Ma'naviy (maqtov orqali) rag'batlantirish;

A) so'z bilan maqtash ; „AJOYIB ISH” , „JUDA YAXSHI ” kabi ijobiliy iboralar orqali o'quvchini maqtash.

B) Maxsus unvonlar ; „HAFTA YULDUZI” , „ENG FAOL O’QUVCHI” kabi unvonlar berish .

C) Jamoa oldida maqtash ; yaxshi natija ko'rsatgan o'quvchini sinfdoshlari oldida rag'batlantirish.

2 Moddiy rag'batlantirish;

A) Sovg'alar ; kichik sovg'alar (Qalam , daftar , kitob) orqali o'quvchilarni mukofotlash.

B) Yulduzchalar ; har bir yaxshi ish uchun yulduzcha taqdim etish.

3 O'zin shaklidagi rag'batlantirish ;

A) Bellashuvlar ; gurux yoki individual musobaqalar tashkil qilish .

B) Qiziqarli topshiriqlar ; har bir topshiriqni o'yinga aylantirib , unga ijodiy yondashish.

“TOP IZLANUVCHI - 2025” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

4 Ijodiy rag’batlantirish;

A) Ijodiy ishlarni namoyish qilish; o’quvchilarning chizmalarini , yozgan hikoyalari va she’rlarini sinf yoki maktabda ko’rgazma qilib qo’yish .

B) Rahbarlikka jalg qilish ; eng faol o’quvchilarni gurux rahbari yoki sinf sardori qilib tayinlash.

5 Jamoaviy rag’batlantirish ;

A) Sinf yutug’i ; barcha sinf bir maqsadga intilib, masalan ,barcha o’quvchilarning yaxshi baho olishi uchun mukofot olish .

B) Jamoa sovg’asi ; gurux bo’lib ishlagan o’quvchilarga umumiy sovg’a taqdim qilish .

6 Vizual rag’batlantirish ;

A) Maqtov doskasi ;sinfda maxsus doska tashkil qilish va eng yaxshi ishlagan o’quvchilarning nomlarini yoki ishlari , rasmlarini ilib qo’yish .

B) Tabriknoma yoki sertifikatlar; maxsus diplomlar yoki sertifikatlar berish .

C) Mavsumiy bezaklar ; „OLTIN KUZ SOVRINI” , yoki „QISHNING ENG YAXSHI O’QUVCHISI” kabi mavsumiy mukofotlash

Ta’lim jarayonida ingliz tilidagi o’yinlardan foydalanish bolalarning psixologik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi . Bu usul o’quvchilarning motivatsiyasini oshiradi , qiziqishini saqlaydi va o’rganish jarayonini interaktiv qiladi.Xusenjonova Mohinur Fariduvnovna va N.N .Zubaydovaning tadqiqotlariga ko’ra , o’yinlar orqali o’rgatish o’quvchilarning o’rganish jarayonida qiziqishini saqlashga yordam beradi. Shuningdek, Iskandarov Oybek Xayrullayevich kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o’rgatishda psixologik xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotida bolalarning yosh davridan boshlab chet tilini o’rgatish masalasi bo’yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgani qayd etilgan. Ummuman olganda , ingliz tilidagi o’yinlar bolalarning diqqat , xotira , tafakkur kabi psixologik jrayonlarni rivojlatirishga xizmat qiladi.Yusupova Gullolaning „ Bolalar psixologiyasi “ asarida ta’kidlaganidek , o’yinlar bolalarning o’ziga xos xususiyatlarini rivojlatirishda muhum rol o’ynaydi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda , ta’limning boshlang’ich bosqichida o’quvchilarga to’g’ri metodlarni qo’llash orqali, ularning shaxsiy va intellectual rivojlanishiga zamin yaratishi mumkin. Bu nafaqat ularning kelajakda yetuk va barkamol shaxs sifatida shakillanishiga ko’maklashadi, balki jamiyat taraqqiyotida o’z o’rnini topa oladigan bilimli avlodni yetishtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga o’quvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki mustaqil fikrlovchi avlod jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim o’rin tutadi. Bunday ta’lim jarayonida

bolalarning qiziqishlari, qobiliyatlari va ijodiy salohiyati bilan rivojlanadi. Kelajak avlod uchun bilimli v ma’naviyatli shaxslarni tarbiyalash – nafaqat o’qituvchilar, balki butun jamiyatning dolzARB vazifasidir. Shu bois, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan sa’y – harakatlarni davom ettirish zarur.

REFERENCES

- 1 O’zbekiston Respublikasi prezidentining 2012- yil 10- dekabrdagi “Chet tillarini o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risidagi” PQ – 1875 – sonli qarori.
- 2 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yilda PQ – 54 - sonli qonuniga muvofiq “Ta’lim sohasidagi islohatlarni jadallashtirish bo’yicha...” qarori
- 3 LinkedIn
- 4 uz.m.wikipedia.org
- 5 Tadqiqotlar
- 6 Ilmiyxabarlar.uz
- 7 fayllar.org

INTERACTION BETWEEN TEACHER AND STUDENTS COMMUNITY IN PRIMARY EDUCATION

Mavlonova Zulayho

*Student at the University of Information Technology and Management,
Kashkadarya, Uzbekistan*

Annotation: *The interaction between the teacher and the student plays a very important role in the classroom. This helps in the education and training process. This article explores the dynamics of interactions between teachers and students in primary education. It examines the significance of these interactions for fostering a positive learning environment, enhancing student engagement, and promoting academic achievement. The article discusses various factors that influence teacher-student relationships, effective communication strategies, and the role of community involvement in education. It aims to provide insights for educators and policymakers on improving teacher-student interactions to enhance educational outcomes.*

Keywords: Teacher-student interactions, primary education, learning environment, student engagement, educational outcomes.